
“DAVLAT MULKINI BOSHQARISH TO’G’RISIDA”GI QONUN QABUL QILINDI



“Davlat mulkini boshqarish to’g’risida”gi qonun qabul qilindi

Joriy yilning 9 mart kuni O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mulkini boshqarish to’g’risida”gi qonuni (O‘RQ-821-sonli) qabul qilindi. Qo’yida mazkur Qonuning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida ma’lumot beramiz.

Qonun davlat mulkini boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat mulkiga bo’lgan mulk huquqi fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan asoslarga ko’ra, shuningdek quyidagi asoslarga ko’ra ham yuzaga keladi:

-shartnomalar va boshqa bitimlar tuzilganda;

-mol-mulkni yoki mol-mulkdan foydalanish huquqini, soliqlar va yig’imlar bo’yicha qarzdorlikni, shuningdek davlat ulushi bo’yicha hisoblangan dividendlarni xo’jalik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritish yo’li bilan ulushni olishda;

-sud qarorlari asosida.

Qonunga ko’ra, ayrim davlat mulklari xususiylashtirilmaydi, jumladan:

-O‘zbekiston hududi doirasidagi yer, yer osti boyliklari, suv omborlari, havo bo’shlig’i, o’simlik va hayvonot dunyosi;

-moddiy madaniy meros ob’ektlari, arxiv hujjatlari, davlat muzeylari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, shu jumladan xiyobonlar va botanika bog’lari.

Davlat mulkini boshqarish subektlari quyidagilardan iborat:

-Vazirlar Mahkamasi;

-Agentlik;

-maxsus vakolatli davlat organlari;

-davlat muassasalari, shu jumladan davlat organlari;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi davlat mulkini boshqarish sohasidagi vakolatli davlat organidir.

Davlat mulki reestrini yuritish Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda va shaklda Agentlik tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik har yili 1 avgustgacha davlat ishtirokidagi korxonalarining o’tgan moliya yilidagi faoliyati samaradorligi to’g’risidagi yig’ma hisobotni o’z rasmiy veb-saytida e’lon qiladi.

Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

So’x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-24 15:51:32